

“Kitob dunyosi” va sport majmuasi ochildi

✘ Bugun 7 sentyabr kuni ertalab soat 10.00.da Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida talaba va pedagoglarning ma'naviy va jismoniy ehtiyojini nazarda tutgan holda, ikkita xayrli tashabbus o'z natijasini ko'rsatdi.

Dastavval, “Kitob dunyosi” do'konining, kitoblar xazinasining ochilishi institut ahli uchun ma'naviy tuhfa bo'ldi deyish mumkin. U yerga 3 mingdan ziyod turli xildagi ilmiy, publitsistik va badiiy adabiyotlar, turli nashriyotlarda chop etilgan kitoblar terib qo'yilgandi.

Institut rektori O'ktam Paradaevich Umurzakov, avvalo, davrada jam bo'lgan talabalar va pedagoglarga kitobning inson hayotidagi o'rni borasida nutq irod qildilar. Bu tashabbus va tashkilotchilik esa ✘ muhtaram Prezidentimizning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlarining ijrosi o'rnida ham ahamiyatli bo'ldi.

So'ngra “Kitob dunyosi” ma'naviy-ma'rifiy majmuasi tantanali ravishda ochildi va talabalar kitoblar xazinasiga taklif etildi, ularga turli kitoblardan ulashildi.

Ikkinchi tadbir esa qisqa muddatda qurib bitkazilgan yangi sport kompleksining ochilishi bilan bog'lanib ✘ ketdi. Futbol, voleybol, yugurish yo'lagi, badminton kabi sport o'yinlaridan tarkib topgan sport kompleksi o'zining go'zal va qulayligi bilan barchaning e'tiborini tortdi.

Rektor o'zlarining tabrik nutqida aqliy va jismoniy kuchga ega bo'lgan yoshlarga barkamol avlod va yurtning ertasiga, istiqboliga daxldor bo'lishlarini uqtirib o'tdi. So'ngra sport kompleksini tantanali ravishda ochib, qizil tasmalarni qirqish orqali barcha ishtirokchilarni qutladilar.

“Irrigator” jamoasi a'zolari futbol maydonchasiga taklif etildi. Rektoremiz har ikkala jamoa musobaqaga kirishishidan oldin to'pni tepib o'yinni boshlab berdilar. Qizg'in futbol o'yini, so'ngra esa voleybol musobaqasi boshlandi.

Ma'naviy va jismoniy qudratga, kamolotga bevosita taalluqli bo'lgan har ikkala tadbir institut hayotida alohida ahamiyatga ega bo'lishi aniq.



GIM fakulteti “Gumanitar fanlar” kafedrasida o'qituvchisi Bahriiddin Muqimov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov